

MAMLAKATIMIZ QISHLOQ HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDA IMTIYOZLI KREDIT VA MOLIYALASHTIRISH SIYOSATI

Agzamova Nargiza Gapurovna

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
assistent o'qituvchi*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizning qishloq hududlarni rivojlantirishda imtiyozli kredit va moliyalashtirish siyosati, qishloq turizmini rivojlantirishda fermerlarni dotatsiyalash va imtiyozli soliqlar belgilashda rag'batlantirish siyosatini qo'llash, fermerlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar va turizmdagi ishtirokini oshirish tahlillar asosida yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va bosqichlari, hamda uning tarkibiy qismlari to'liq yoritilgan

Kalit so'zlar: qishloq turizmi, imtiyozli kredit va moliyalashtirish siyosati, ekoturizm, etnografiya, xizmat ko'rsatish sektori, fermerlarni dotatsiyalash va imtiyozli soliqlar, turistik resurslar.

Kirish

O'zbekiston turizmni rivojlantirishda ulkan salohiyatga ega bo'lib, Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakat hududida 7,4 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud bo'lib, ularning 209 tasi YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, 11 ta milliy bog' va davlat qo'riqxonasi, 12 ta qo'riqxona, 106 ta muzey va boshqa turistik obyektlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati qishloq hududlarida joylashgan. Biroq, uzoq yillar davomida ushbu salohiyatdan yetarlicha foydalanilmagan.

Adabiyotlar tahlili

Qishloq turizmi tushunchasini izohlab berishda xorijlik mualliflar hamda halqoro tashkilotlarda hilma-xillikni ko'rishimiz mumkin. Xalqaro turizm tashkiloti tomonidan qishloq turizmi bo'yicha quyidagi ta'rif берилган: Qishloq turizmi bu-turizm bozorining segmenti bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati jozibali qishloq joylarda, qo'riqlanadigan tabiiy xududlarda tabiatdagi rekreattsion faoliyat turidir. Ushbu sigment qator faoliyat turlarini o'z ichiga oladi: ilmiy turizmdan, yovvoyi tabiatni kuzatish, fotografiya, extiyojni qondirish (baliqchilik va ovchilik), shuningdek sport va sarguzasht turizmigacha[3]. Xalqaro turizm tashkilotining Madriddagi maxsus ma'ruzasida (2001 yil) ma'lum qilinishicha, Germaniyada tabiiy (qishloq) turizm turistik bozor segmenti sifatida qaralib, asosiy o'ziga xos tomoni tabiatdagi jozibador qishloq joylarida, tabiiy qo'riqlanadigan xududlarda dam olish tushuniladi. Bu segment o'z ichiga bir qancha faoliyat turlarini qamrab oladi: yovvoyi tabiatni kuzatib rasmga muhrlashdan tortib ov qilish, baliq ovlash, hamda sport va sarguzasht turizmigacha[4].

Zamonaviy xalqaro amaliyotda qishloq turizmini rivojlantirish ko'pincha turizmning boshqa turlari bilan birlashtirilib, ekoturizmni qamrab oladi.

Xozirgi davrga kelib, Frantsiya, Italiya, Markaziy Yevropa, Bolqon yarim oroli, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Kanadada qishloq turizmi geografiyasi sezilarli darajada kengaymoqda. Shuningdek, qishloq turizmi sayyohlarning ichki olamiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki sayyoh mehmon uyining egasidikiga mehmonga kelgandek his qiladi[5]. Bu yerda yollanma ishchilar xizmat ko'rsatmaydi, taomlar ham mehmon uyi bekalari tomonidan uy sharoitida tayyorlangan bo'ladi[6]. Qishloq turizmida asosiy joylashtirish vositalari mehmon uyi bo'lib, "u kichikroq, ko'pincha oilaviy mehmonlar uchun, qisqa muddatli joylashtirish xizmatlarini, ovqatlanish, ekskursiya dasturlari, mehmonlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va boshqa qo'shimcha xizmatlarni tashkil etadi[7], [8]."

Tadqiqotimiz davomida xorijlik va MDH davlatlari tadqiqotchilari bilan birga o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizning ham ishlarini o'rgandik. Jumladan, iqtisodchi olim E.V.Golisheva o'zining "Сельский туризм: от теории к практике" o'quv qo'llanmasida qishloq turizmiga quyidagicha ta'rif bergan: "Qishloq turizmi (agro turizm, yashil turizm, ekoturizm) bu fuqarolarning (ham mahalliy, ham xorijiy) asosiy yashash joyidan qishloq joylarga sayohat qilish maqsadida va/yoki qishloq xo'jaligi ishlarida ishtirok etish, lekin vaqtincha yashash joyida daromad olmaydigan faoliyat bo'lib, tabiiy, madaniy-tarixiy va qishloq joylarning boshqa resurslaridan foydalanishga qaratilgan, hamda kompleks turistik mahsulot yaratishga xos turizm sektori,[9]" deb ta'riflagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola har bir ilmiy izlanish kabi olimlarning fikrlari va mulohazalarini tahlil etishni o'z ichiga olib asosiy maqsadga erishish uchun ilmiy tasviriy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashish, kuzatish, dala tadqiqotlari kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muxokamasi

Turistlarning mamlakatimizga tashrifi ortayotgan bo'lsa-da, ularning qishloq hududlariga yo'nalishi yetarli darajada shakllanmagan. Qishloq turizmini rivojlantirish nafaqat turistik sektorni diversifikatsiya qilish, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston hukumati tomonidan 2009 yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", 2013 yil "Obod turmush yili" deb e'lon qilingan bo'lsa, 2018 yilda "Obod qishloq" dasturining qabul qilinishi qishloq turizmini rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Qishloq turizmini rivojlantirishda fermerlarni dotatsiyalash va imtiyozli soliqlar belgilashda rag'batlantirish siyosatini qo'llash bo'yicha maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda fermer xo'jaliklarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday qo'llab-quvvatlash turizm infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq hududlarida mehmonxonalar, agroturizm ob'ektlari, an'anaviy hunarmandchilik va fermerlik xo'jaliklarini turistik markazlarga aylantirish imkoniyatini beradi. Fermerlarning qishloq turizmidagi ishtirokini oshirish uchun quyidagi iqtisodiy rag'batlantirish vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.[10]

Davlat tomonidan fermer xo'jaliklariga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yordam ko'rsatish qishloq turizmining jadal rivojlanishiga olib keladi. Bunday yordam turli shakllarda bo'lishi mumkin:

- Agroturizmni rivojlantirish uchun grantlar – yangi mehmonxonalar, dam olish zonolari, turistik infratuzilma qurilishi va modernizatsiyasi uchun beriluvchi mablag'lar.

- Fermerlarga agroturizm uchun kreditlar – uzoq muddatli va past foizli kreditlar orqali kichik turistik biznesni tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash.

- Qishloqda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash fondi – fermerlarning qishloq xo'jaligiga asoslangan turistik faoliyatini rivojlantirish uchun davlat fondlari orqali moliyaviy ko'mak berish. Shu bilan bir qatorda, imtiyozli soliq siyosatini qo'llash, qishloq turizmini rivojlantirishda fermerlar uchun soliq yukini yengillashtirish samarali mexanizm hisoblanadi. Bunday imtiyozlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- QQS (Qo'shilgan qiymat solig'i) bo'yicha imtiyozlar – agroturizm ob'ektlari uchun maxsus stavka belgilanishi yoki QQS to'lashdan ozod qilish.

- Yer solig'idan ozod qilish – agroturizmga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari uchun yer solig'ini kamaytirish yoki umuman bekor qilish.

- Daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar – fermerlarning qishloq turizmi bilan bog'liq faoliyatidan tushgan daromadlariga soliq kamaytirilgan stavka bo'yicha hisoblanishi.

- Soliq ta'tillari – yangi turistik faoliyat boshlagan fermerlar uchun belgilangan muddatga (masalan, 3-5 yil) daromad solig'idan ozod qilish. O'z navbatida, imtiyozli kredit va moliyalashtirish siyosati fermerlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi:

- Davlat kafolati ostidagi kreditlar – fermerlarga banklar tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun ajratiladigan past foizli kreditlar.

- Investitsiyaviy kreditlar – qishloq hududlarida agroturizmga oid loyihalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli va minimal foizli qarz mablag'larini ajratish.

- Kredit qaytarish muddatini uzaytirish – yangi turistik loyihalar uchun kreditlarni qaytarish muddatini uzaytirish va foizlarini kamaytirish.

Xalqaro tajribada qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina davlatlar muvaffaqiyatli siyosat yuritmoqdalar: jumladan, Frantsiyada agroturizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi fermerlar uchun soliq imtiyozlari joriy etilgan va davlat grantlari ajratiladi. Italiyada esa "Agroturizm" dasturi orqali fermerlarga mehmonxonalar qurish, restoranlar va fermer xo'jaliklari ochish uchun uzoq muddatli kreditlar beriladi. Germaniyada ham fermerlar qishloq turizmini rivojlantirishda davlat subsidiyalari va imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Uzoq yillik tajribaga ega AQSh va Kanadada qishloq xo'jaligi turizmini qo'llab-quvvatlash maqsadida fermerlarga grantlar va soliq ta'tillari berilgan.

Qishloq turizmini rivojlantirishda fermerlarni qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llaridan biri – ular uchun iqtisodiy imtiyozlar yaratishdir. Davlat

tomonidan dotatsiyalar, soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar taqdim etilishi qishloq joylardagi turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro tajribalarni o'rgangan holda, qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish zarur. Bu siyosat nafaqat fermerlarning daromadini oshiradi, balki qishloq joylarda ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Qishloq turizmi loyihalarini amalga oshirish uchun xususiy va xalqaro investorlarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday investitsiyalarni rag'batlantirish uchun quyidagi mexanizmlar qo'llanilishi mumkin:

- Investitsiyaviy subsidiyalar – xususiy investorlarga qishloq infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish.
- Hamkorlik dasturlari – mahalliy hokimiyat va xususiy sektor o'rtasida davlat-xususiy sheriklik asosida agroturizm loyihalarini qo'llab-quvvatlash.
- Chet el investorlariga imtiyozlar – xalqaro investorlarni jalb qilish uchun soliq va bojxona imtiyozlari, yer ajratishda preferentsiyalar.
- Klaster tizimi – qishloq turizmi bo'yicha integratsiyalashgan klasterlarni yaratish va ularni investitsiyaviy jozibadorligini oshirish.

Xulosa

Demak, tahlillarimiz asosida bir qator muhim ahamiyatga ega quyidagi xulosalarga keldik: Birinchidan, qishloq turizmi turizmning bir turi bo'lib, bunda tabiiy xududlarda, an'anaviy madaniyat bilan muloqotga kirishib, qishloqda dam olish tushuniladi;

Ikkinchidan, qishloq turizmini rivojlantirishda fermerlarni qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llaridan biri – ular uchun iqtisodiy imtiyozlar yaratishdir. Davlat tomonidan dotatsiyalar, soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar taqdim etilishi qishloq joylardagi turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xususiy va xalqaro investorlarni jalb qilish uchun hukumat va mahalliy hokimiyat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilishi zarur. Bu siyosat nafaqat fermerlarning daromadini oshiradi, balki qishloq joylarda ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Социально - культурные туристские ресурсы Алтайского региона. Проблемы и перспективы использования. Материалы международной научно-практической конференции/ред. кол.: А.С. Кондыков и др. - Барнаул: изд-во АГИИК, 2009. - 220 с. с-80.

2. Wanda George E. Rural Tourism Development: Localism and Cultural Change (Tourism and Cultural Change) / E. Wanda George, H. Mair, D.G. Reid. - Bristol, Buffalo, Toronto: Channel View Publications, 2009. - 288 p.

3. Чудновский А. Д. Управление потребительскими предпочтениями в сфере отечественного туризма и гостеприимства и основные направления реализации туристского продукта: учебное пособие / А.Д. Чудновский, М.А. Жукова. - М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. - 304 с.

4. В гости к природе. Маркетинг в сельском туризме: методические рекомендации/ вёрстка и дизайн С. Васильев. - Псков: ГК ТИПР, 2010.- 4 с.
5. Агротуризм: проблемы и перспективы развития: монография / В. А. Кундиус [и др.]; М-во сел. хоз-ва Рос. Федерации, Федер. гос. образоват. учреждение высш. проф. образования "Алт. гос. аграр. ун-т". - Барнаул: Азбука, 2011. - 4 с.
6. Е.В.Голышева. Сельский туризм: от теории к практике: [т]Учебное пособия /. -Ташкент: "Bookmany print", 2022.-17с.
7. A.N.Norchaev."Qishloq turizmi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari";//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019 yil. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>.
8. <https://www.statista.com/statistics/1099933/travel-and-tourism-share-of-gdp/>
9. <https://www.unwto.org/tourism-statistics>.Tourism statistics.
10. <https://www.tohology.com/hospitality/industry/unwto-statistika-mezhdunarodnyh-poezdok/>

PRIORITIES IN IMPROVING FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION: IMPLICATIONS FOR POLICY MAKERS AND EDUCATORS

Mirodil Azizov

Turin Polytechnic University in Tashkent

Abstract: This paper examines the importance of improving financial literacy among the general population and identifies key priorities that can enhance individuals' understanding of personal finance, thereby fostering economic stability and social well-being. As financial markets become increasingly complex and integrated globally, a financially literate population is crucial for promoting informed decision-making, improving savings rates, and mitigating risks of financial crises. This study explores the current state of financial literacy across different demographics and offers practical recommendations for policymakers and educators to advance financial education. The research is structured into four main sections: literature review, research methodology, discussion, and conclusion. The literature review discusses the existing challenges in financial literacy and the benefits of financial education, while the research methodology details the approach used to gather data. The discussion focuses on the most urgent priorities for enhancing financial literacy, and the conclusion provides actionable recommendations for policy changes and educational interventions.

Keywords: Financial Literacy, Public Education, Economic Stability, Financial Inclusion, Policy Implementation, Financial Education

1. Introduction

Financial literacy is an essential skill that enables individuals to make informed and effective financial decisions. In today's globalized economy, the